



**SIRDARYO VILOYATIDAGI O'Z VA O'ZLASHMA QATLAMGA
MANSUB TOPONIMLARING LISONIY XUSUSIYATLARI**

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: kenjayeva88iroda@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatidagi o'z va o'zlashma qatlamga mansub toponimlarning til xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatdagi toponimlarda o'z qatlam va o'zlashma qatlamning o'рни va ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar. So'z, toponim, o'z qatlam, o'zlashma qatlam, umumturkiy so'zlar, olinma so'zlar.

Ona tilimiz o'zining qadimiyligi va lug'at tarkibining boyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. O'zbek tilining taraqqiy etishi mustaqillik tufayli yanada jadallashmoqda. Yurtimiz hayotida yuz berayotgan barcha sohalardagi o'zgarishlar, yangiliklar, eng avvalo, ona tilimizning lug'at tarkibida o'z aksini topadi. Shunga ko'ra tilshunoslikda so'zlar ikki guruhga: o'z qatlam va o'zlashma qatlamlarga bo'lib o'rganiladi. Til taraqqiyoti, o'z va o'zlashma qatlam kabi mavzular bevosita joy nomlari bilan ham bog'liq.

Sirdaryo viloyatidagi joy nomlarini tahlil qilish jarayonida ularning ma'lum bir qismini o'z qatlam, umumturkiy so'zlar tashkil qilishini va yana ko'proq qismini esa o'zlashma qatlamga oid so'zlar tashkil etishini ko'rish mumkin. Ma'lumki, o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, boshqird kabi tillar qarindosh tillar hisoblanib, bir oilaga, ya'ni turkiy tillar oilasiga mansubdir. Ona tilimizda keng qo'llanadigan, asosan, bir va ikki bo'g'inli tub so'zlardan iborat bo'lgan *bosh*, *qosh*,

qo'l, yer, bur, ikki, uch, bobo, ona. bola, qora, burun, etak, bo'l, ol, kel, ko'k singari so'zlar turkiy tillar orasida keng qo'llanuvchi so'zlar bo'lib, ularni umumturkiy so'zlar deb ataymiz. O'zbek tili lug'at tarkibining ko'p qismini umumturkiy so'zlar tashkil etadi. Bunday so'zlarni inson tushunchasi bilan bog'liq *kishi, el, yurt* kabi so'zlarda ko'rish mumkin.

Sirdaryo viloyatida ham inson tushunchasi bilan bog'liq joy nomlari mavjud. *Buyuk yurt, Elobod, Obodyurt, Otayurt* kabi joy nomlari inson, jamiyat ma'nolarini ifodalaydigan so'zlar orqali hosil bo'lgan toponimlardir. "**Buyuk yurt** – Boyovut tumanidagi qishloq nomi. Ushbu toponim buyuk xalq, buyuk o'lka, buyuk el sharafiga berilgan".[1.24] **Elobod** nomi esa Mirzaobod tumanidagi aholi yashash hududi va Sirdaryo tumanidagi mahallalardan biriga berilgan nomdir. "El – bir joyning odamlari, aholisi, xalqi, umuman, ko'pchilik odam, xaloyiq"[2.29] deya ta'riflangan. Bundan tashqari qarindoshlik tushunchasi bilan bog'liq so'zlar ham umumturkiy so'zlardir. *Buyuk kelajak, Mulla Bobo qudug'i, Nurota, Erjar, Nurli kelajak, Yangi avlod, Yettiurug'* kabi. Kuzatishlar natijasida qarindoshlik tushunchani ifodalaydigan toponimlar viloyatda nisbatan kamroq.

Raqamlar bilan bog'liq joy nomlari ham o'z qatlamga oid so'zlardir. Bunday toponimlar Sirdaryo viloyatida anchagina: **Beshbuloq** nomli Guliston tumanidagi qishloq, Sirdaryo va Guliston tumanlaridagi mahalla nomlari bunga misoldir. Shuni ta'kidlash lozimki, bir nom boshqa bir qishloq yoki mahallaning ham nomi bo'lishi mumkin. Raqamlar bilan bog'liq yana *Beshkapa, Beshqo'sh, Birlik, Mingchinor, Uchtom, Uchturg'on, Uchqahramon, To'qqizkapa, Yettiurug', Yettiguzar* kabi joy nomlarini ham viloyatda uchratish mumkin. Beshbuloq nomiga Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'atida shunday izoh berilgan: "Mo'g'ul va turkiy tillar



uchun umumiy, mushtarak bo‘lgan terminlardan biri buloq, u yer osti suvlarining tabiiy holda yer yuzasiga sizib chiqqan joyga aytiladi. *Buloq* so‘zining areali ancha keng va toponimik termin sifatida barcha turkiy tilli hududlarda qo‘llaniladi. Buloq so‘zi “*oqmoq*”, “*aralashtirmoq*” ma’nosidagi *bula* fe’lidan kelib chiqqan, degan xulosa mavjud. Demak, *Beshbuloq* – “*besh buloqdan iborat joy*”, “*buloqlari ko‘p joy*” degan ma’noni anglatadi. Cho‘lni o‘zlashtirishda Beshbuloq nomli qishloqdan ko‘chib kelgan aholi nomiga qo‘yilgan”[3.20].

Aslida turkiy tilga oid o‘zbekcha joy nomlarining ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ana shunday qadimiy nomga ega bo‘lgan joylardan biri Achamayli qishlog‘idir. Bu nomdagi qishloq nafaqat Sirdaryo viloyatida, balki Respublikamizning boshqa hududlarida ham uchraydi. Ba’zi joylarda Ochamayli deb ham yuritiladi. Ushbu nom o‘zbek xalqining tarkibiga kirgan urug‘lardan birining nomi hisoblanadi. O‘zbek xalqining qadimiy etnik birligi bo‘lganligi bois so‘nggi davrlarda turli qabila va urug‘lar tarkibiga singib ketgan. Shu sababli ham qadimiy qabilalardan bo‘lgan qo‘ng‘irot, kenagas, yuz, do‘rman, nayman, qurama, marqa qabilalari tarkibida achamayli urug‘i mavjud. Bu so‘zning qay holatda bizgacha yetib kelganligi va qanday ma’no anglatishi to‘g‘risida B.O‘rinboyev shunday yozadi: “Achamayli – umumturkiy etnonim, qoraqalpoq va qozoqlarning achamayli/atamayli urug‘i aniqlangan. Achamayli/ashamayli etnonimining tarkibi: acha+mayli. Ba’zi manbalarda achamay+li tarzida talqin qilingan.

Ho‘kiz, qo‘tosga uriladigan egar yoki bolalar minishi uchun mo‘ljallangan egar ochamay/achamay deyilgan. Achamayli – tamg‘asi egar shaklidagi urug‘ demak”[4.20].



Etnonimning tarkibi fonetik hodisalar natijasida acha/ocha+mayli/moyli/boyli–acha-mayli/ochamayli/ochaboyli holiga kelib, hozirgi kunda Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlaridagi qishloqlarda xuddi shunday Achamayli, Ochamoyli, Achamoyli tarzida talaffuz qilinadi.

Sirdaryo viloyatida uzoq tarixga ega bo'lgan o'z qatlamga oid o'zbekcha joy nomlariga yana Baliqchi, Boyovut, Boyto'bi, Gumbaz, Juvonsiyroq, Mo'g'ol, Do'ngariq, Uyuvli, Nayman, Qarapchi, To'pak, Uyas, Chambil kabi toponimlarni misol qilish mumkin. Bu nomlar necha asrlar, necha-necha yillar sinovidan o'tgan qadimiy nomlardir.

Shuningdek, olinma so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalar qo'shib yasalgan so'zlar ham o'zbekcha so'zlar hisoblanadi. Sirdaryo viloyatidagi Oqoltin, Sardoba, Guliston tumanlaridagi *Ahillik* nomli qishloq va mahalla nomi, Mirzaobod tumaniga qarashli *Bahoriston* nomli qishloq, Xovos, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridagi *Bog'iston* nomli mahalla, Oqoltin tumanidagi *Gulzor* nomli mahalla va shunday uslubda yasalgan *Hikmatli*, *Ibratli*, *Inoqlik*, *Mangulik*, *Nurliyo'l*, *Ozodlik*, *Shodlik*, *Chamanzor* kabi nomlar tarkibining asos qismi olinma, qo'shimcha qismi o'zbekcha bo'lgan toponimlar ko'plab topiladi. Guliston shahridagi *Ibratli* mahallasining so'z tarkibiga e'tibor bersak, "Ibrat arabcha so'z bo'lib, o'git, pand-nasihat, namuna o'rnak kabi ma'nolarni anglatadi"[5.170]. –li so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida ot so'z turkumidan sifat so'z turkumiga oid so'z hosil bo'lgan, ya'ni Ibratli – ibrat bo'ladigan, namuna, o'rnak olsa arziydigan ma'nolarni anglatadi.

O'zbek tili leksikasi ichki imkoniyatlari bilan birdek boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar hisobiga ham boyib bormoqda. Bularni biz o'zlashma qatlam deb yuritamiz. "Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari




asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo‘q. Bundan o‘zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma’lum zarurat tufayli yangi tushunchani o‘z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo‘lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiylar ham shunga da’vat qilganlar”[6.155]. Haqiqatan ham, boshqa tillardan zarurat bo‘lgandagina so‘z olish eng to‘g‘risi. Chunki o‘zimizda biror tushunchani ifodalaydigan so‘z bo‘la turib boshqa tildan yana yangi so‘zlarning kirib kelishi ona tilimizning sofligiga putur yetkazadi, tilimizdagi o‘zbekcha so‘zlarning kamayib ketishiga sababchi bo‘ladi. Ammo tashqi manba orqali tilimizning boyib borishi biz xohlaymizmi, yo‘qmi, barcha tillarga xos bo‘lgan xususiyatdir. Keyingi davrlarda tilimizga yevropa tillaridan bir qancha yangi tushunchalarni bildiradigan so‘zlar kirib kelmoqda. Masalan, *tender, reyting, marketing, konflikt, chat, imidj, innovatsiya, organayzer* kabi.

Hukumron mamlakat, albatta, o‘z rahbarligi bilan birga madaniyati, siyosati, urf-odatlarini orqali tilga ham ta’sirini o‘tkazadi. Bunga tilimizga singib ketgan arab tili, fors-tojik tili, rus tilidagi so‘zlarning ko‘pligi yaqqol misoldir. Shunga ko‘ra tilimizdagi o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi: fors-tojikcha so‘zlar, arabcha so‘zlar va ruscha so‘zlar. Tojik tilining ta’sirida ona tilimizda *boshpana, shirinso‘z, yalangbosh, qahr-g‘azab, to‘y-tomosha* singari qo‘shma va juft so‘zlar paydo bo‘lgan. Asosan, bu tildan ijtimoiy sohaga tegishli bo‘lgan so‘zlar kirib kelgan. So‘z o‘rtasi va oxirida qator undoshlarning kelishi hamda **no-, ba-, be-, ham-** kabi old qo‘shimchalarining bo‘lishi ham fors-tojik tilidan kirib kelgan so‘zlarga xosdir: *bahor, barg, daraxt, farzand, hamkasb, nojo‘ya* singari. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi ilm-fan, diniy tushunchalarga oid



soʻzlardir: *adabiyot, kitob, oila, mutolaa, sanʼat, inshoot, aʼlo, muallim* kabi. Rus tili va u orqali yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid soʻzlardir: *stol, ruchka, diagramma, komissiya, samolyot, konstitutsiya* kabi soʻzlar.

Bunday xususiyatlar Sirdaryo viloyati toponimlarida ham sezilarli darajada aks etgan. Viloyatdagi oʻzlashma qatlama mansub toponimlarning lisoniy xususiyatlarini ham uch guruhga ajratish mumkin. Sirdaryo viloyati toponimlari hisoblab koʻrilganda oʻz qatlama oid toponimlardan koʻra oʻzlashma qatlama oid joy nomlari koʻpligi aniqlandi. Asosan arab, fors va rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar bilan oʻzbek tiliga oid soʻzlarni alohida-alohida (oʻzbekcha–arabcha, oʻzbekcha–forscha va oʻzbekcha–ruscha) hisoblaganda, albatta, oʻz qatlama oid soʻzlar koʻp. Bunday boʻlishi tabiiy hol, chunki bu yurtida qadimdan oʻzbeklar va qardosh turkiy xalqlar ishtiqomat qilib kelishgan. Ammo shunga qaramasdan, arab, fors, rus tillari bir guruh, oʻzbek tili bir guruh etib hisoblansa oʻzlashma qatlam oʻz qatlamdan koʻra koʻp ekanligi yaqqol seziladi. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlar asosida ataladigan joy nomlarining oʻrtacha hisobini quyidagi diagrammada koʻrish mumkin.



Yuqoridagi joy nomlaridan tashqari viloyatda arabcha+o'zbekcha (asos+qo'shimcha) *Nurlihayot, Nurliyo'l, Nurota, Nurli kelajak*, arabcha+forscha (asos+qo'shimcha) *Ijodkor, Nurobod, Nurafshon*, o'zbekcha+forscha (asos+qo'shimcha) *Elobod, Paxtakor*, forsch+o'zbekcha (asos+qo'shimcha) *Gulbuloq, Guliston, Bog'iston* kabi bir qancha toponimlarni ham bor.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek tilining taraqqiyotida o'z qatlamning ham, o'zlashma qatlamning ham o'zni beqiyos. Bu ijtimoiy sohaga oid yoki ilm-fan, madaniyat, siyosiy-iqtisodiy sohaga oid so'zlar bo'ladimi, barchasi o'zbek tilining boyishi uchun xizmat qiladi. O'z navbatida bu – toponimiya sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Buni birgina Sirdaryo viloyati misolida ko'rib o'tdik. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod ona tilimizdagi o'zbekcha so'zlar, umumturkiy so'zlar qaysilar ekanligini va o'zlashma qatlamga oid forsch, arabcha, ruscha, inglizcha so'zlarni ajrata olishlari, ularning qay usulda, nima maqsadda kirib kelayotganini bilishlari lozim. Shu bilan bir qatorda o'zi va yaqinlari



istiqomat qiladigan, qo‘yingki, yurtimizdagi barcha hududlarning nomlanishi, ularning tarixiy ildizlari va bugungi holati haqida bosh qotirishlari lozim.

Adabiyotlar

1. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: “Bookmany print”, 2024. –B.24.
2. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: “Bookmany print”, 2024. –B.20.
3. Rasulova N. Ona tilidan ma’ruzalar. I kitob. –Toshkent: “Nurafshon ziyo yog‘dusi”, 2018. – B.155.
4. O‘rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar. – Samarqand, 2003. – B.20.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V. – B.29.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II. – B.170.